



BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-FEVRAL



*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'i idir.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar  
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**21 066  
birlik**



**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**

**66,5 %**



**Xizmatlar sohasidagi  
korxona va tashkilotlarning  
ulushi**


**103,9 %**



**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati**

**2023- yilning 1- mart** holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni **31 660** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **21 066** birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiyligi sonining **66,5 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etgan.

**Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar**  
(1- mart holatiga ko'ra, ming birlikda)




**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiyl sonidan (28 113 birlik) 17 639 birligi xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonidagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi esa 11,4 % ni (2 399 birlik) tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:**  
**2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasining ulushi 83,3 % yoki 16 895 birlikni tashkil etgan.**

**Taqqoslash uchun:**

**2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 64,7 % ni, ya'ni 20 283 birlikni tashkil etgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etgan.**


**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari**  
(1-mart holatiga ko'ra, ming birlikda)



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

### Buxoro viloyati bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral oylarida)<sup>1)</sup>



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-fevral oylarida** bozor xizmatlari hajmi **2 608,6 mlrd. so'mga** yetdi. **2022- yilning yanvar-fevral oylariga (113,9 %)** nisbatan o'sish sur'ati **107,3 %** ni tashkil etgan.


<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari  
(2023- yil yanvar-fevral oylarida)**

	Hajmi, <i>mldr. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Buxoro viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>2 608,6</b>	<b>100,0</b>	<b>107,3</b>
Olot	89,9	3,4	102,7
Buxoro	140,3	5,4	103,5
Vobkent	127,8	4,9	77,4
G'ijduvon	342,2	13,1	104,1
Kogon	93,7	3,6	117,5
Qorako'l	111,8	4,3	103,3
Qorovulbozor	41,8	1,6	100,1
Peshku	130,9	5,0	113,0
Romitan	142,6	5,5	102,9
Jondor	143,1	5,5	105,1
Shofirkon	115,1	4,4	103,1
Buxoro sh.	1 039,7	39,9	116,1
Kogon sh.	89,7	3,4	102,5

<sup>1)</sup> shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral oylarida)



**2023- yilning yanvar-fevral** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 308,7 ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etgan.

■ Hajmi, ming so'mda      ⇔ O'sish sur'ati, % da

## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 308,7	105,6
Olot	880,7	101,3
Buxoro	808,9	101,7
Vobkent	883,3	76,2
G'ijduvon	1 088,0	102,5
Kogon	1 143,8	115,2
Qorako'l	663,6	101,9
Qorovulbozor	2 163,6	97,5
Peshku	1 024,3	111,0
Romitan	966,3	101,2
Jondor	791,5	103,4
Shofirkon	628,7	101,6
Buxoro sh.	3 629,0	114,5
Kogon sh.	1 421,5	100,5

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinalarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (yanvar-fevral oylarida)

**2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida** kichik tadbirkorlikning hajmi **163,4** mlrd. so'mga oshib, **1 594,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **61,1** % ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **18,3** % ini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik umumiy hajminining **24,3** % i yoki **388,1** mlrd. so'mni Buxoro shahri egallaydi.


### Xizmatlar sohasida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar oyida)



■ Kichik korxona va mikrofirmalar

**2023- yilning yanvar-fevral** oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlarning ulushi **28,4** % ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlar **23,3** %, transport xizmatlari **20,8** %, ta'lim xizmatlari **4,9** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,5** % darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **0,8** % darajasida qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida, % da)



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi moliyaviy xizmatlar **18,8** % ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **0,9** % ni tashkil etgan.


**Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 608,6</b>	<b>100,0</b>	<b>107,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	116,4	4,5	123,2
Moliyaviy xizmatlar	608,9	23,3	133,4
Transport xizmatlari	543,7	20,8	100,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	492,5	18,9	100,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	95,9	3,7	90,9
Savdo xizmatlari	740,1	28,4	93,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	54,5	2,1	102,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	126,7	4,9	153,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,8	1,8	102,6
Ijara xizmatlari	59,7	2,3	96,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	55,5	2,1	101,3
Shaxsiy xizmatlar	64,1	2,4	102,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,8	0,8	102,4
Boshqa xizmatlar	75,5	2,9	106,0

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)

138,0                    133,4



2022- y.                    2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so'mda      ○ O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi **198,8** mlrd. so'mga oshib, **608,9** mlrd. so'mga yetdi. Umumiylajmiha ushbu xizmatlarning ulushi **23,3** % ni tashkil etdi. Umumiylajmiha xizmatlarning o'sish sur'ati **133,4** % ni tashkil etdi.


### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **89,5** % ni tashkil etdi.

Sug'urta  
bo'yicha  
xizmatlar

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**



Buxoro viloyatining geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiyalari tizimining mavjudligidir.

**Transport xizmatlarining hajmi<sup>1)</sup>**  
*(2023- yil yanvar-fevral oylarida, mlrd. so‘mda)*

	Hajmi, mlrd. so‘mda	O‘sish sur’ati, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>543,6</b>	<b>100,7</b>
Olot	25,0	101,2
Buxoro	34,5	99,8
Vobkent	33,3	100,6
G‘ijduvon	96,5	100,2
Kogon	24,4	100,2
Qorako‘l	26,1	100,3
Qorovulbozor	10,4	64,7
Peshku	29,7	101,2
Romitan	39,6	96,0
Jondor	37,1	100,5
Shofirkon	26,8	101,0
Buxoro sh.	129,9	107,9
Kogon sh.	30,3	99,3

<sup>1)</sup> shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olmagan holda

**2022- yilning yanvar-fevral oylariga** nisbatan Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **23,5** mlrd. so‘mga oshib, hisobot davrida **129,9** mlrd. so‘mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-fevral oylariga** nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati **107,9** % ni tashkil etdi.


**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko’ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug’ullanuvchilarning ulushi (**43,7 %** yoki **9 213** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,7 %** ini (**9 187** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.**

### **Savdo xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)**

**2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida** savdo xizmatlari hajmi **41,2** mlrd. so’mga oshib, **740,1** mlrd. so’mni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ushbu turdagи xizmatlar hajmining **6,5 %** ga pasayishi qayd etildi.**



■■■ Hajmi, mlrd. so’mda ⇔ O’sish sur’ati, % da

Savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **75,1 %** ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- mart holatiga** ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **345** birlikka yetdi, shundan **326** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)**

**118,8**

**123,2**



**91,7**

**116,4**

**2022- y.**

**2023- y.**

■ Hajmi, mlrd. so'mda ⇢ O'sish sur'ati, % da

**2023- yilning yanvar-fevral oylarida** aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **116,4** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022- yilning yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **123,2 %** ni tashkil etdi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)**

Telekommunikatsiya xizmatlari – **92,3 %**

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **3,5 %**

Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar – **3,3 %**


Axborot xizmatlari – **0,9 %**

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

**Ta’lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

### Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)



■ Hajmi, mlrd. so‘mda      ↗ O’sish sur’ati, % da


**2023- yil yanvar-fevral oylarida** ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 126,7 mlrd. so‘mga yetdi.  
**2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan o‘sish sur’ati **153,6 %** ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-fevral oylarida** ularning ulushi **62,4 %** ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- mart** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **815** birlikni tashkil etdi, shundan **734** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar** (yanvar-fevral oylarida)



**2023- yil yanvar-fevral oylarida** sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **46,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda      ● O'sish sur'ati, % da

### **Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra**, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2 390** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 383** birlik kichik biznes subyektlaridir.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)**


**2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **7,4** mlrd. so'mga oshib, **95,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)**




**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijara olingan ko'chmas mulkni ijara berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

### Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)



**2023- yilning yanvar-fevral oylarida** ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **54,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil etgan.


### Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



<sup>1)</sup> shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

### Ijara xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)



**2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan ijara xizmatlari hajmi **2,6** mlrd. so'mga oshib, **2023- yil yanvar-fevral oylarida** **59,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiyligi hajmida **2023- yil yanvar-fevral oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,8 %** ni tashkil etdi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarining, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 65-223-79-41